



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

5. World Travel & Tourism Council. "Travel & Tourism Economic Impact Research (EIR)." 2024. Available at: <https://wtcc.org/research/economic-impact>
6. Digital Transformation Summit. "The Impact of Tourism on Digital Transformation." Industry Analysis, October 4, 2024. Available at: <https://www.digitransformationsummit.com/blogs/impact-of-tourism-on-digital-transformation/>
7. World Tourism Organization. "Digital Transformation." UNWTO Digital Tourism Initiative, 2025. Available at: <https://www.unwto.org/digital-transformation>
8. Campbell, Pete. "The Future of Sustainable Tourism." Ecobnb Blog, October 8, 2024. Available at: <https://ecobnb.com/blog/2024/10/future-sustainable-tourism-trends-challenges-innovations/>
9. World Tourism Organization. "International Tourism Recovers Pre-Pandemic Levels in 2024." UNWTO News, January 2025. <https://www.unwto.org/news/international-tourism-recovers-pre-pandemic-levels-in-2024>

UDK: 338.45

SANOAT KORXANALARI INNOVATION FAOLIYATINI BOSHQARISH

УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРЕДПРИЯТИЯ

MANAGEMENT OF INNOVATION ACTIVITIES OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE

Sadullayev Muxammad Davronbekovich

M. Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Аннотация

Mazkur maqolada sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatning ahamiyati, uning iqtisodiy samaradorligini baholash usullari va asosiy ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etish orqali korxonalar raqobatbardoshligini oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, sanoat korxonalari, samaradorlik, investitsiya, texnologiya, raqobatbardoshlik.

В данной статье проанализированы значение инновационной деятельности на промышленных предприятиях, методы оценки её экономической эффективности, а также основные показатели. Кроме того, рассмотрены вопросы повышения конкурентоспособности предприятий за счёт эффективной организации инновационных процессов.

Ключевые слова: инновации, промышленные предприятия, эффективность, инвестиции, технология, конкурентоспособность.

This article analyzes the importance of innovative activity in industrial enterprises, the methods for evaluating its economic efficiency, and its main indicators. It also examines ways to enhance the competitiveness of enterprises through the effective organization of innovation processes.

Keywords: innovation, industrial enterprises, efficiency, investment, technology, competitiveness.

Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan innovatsion faoliyatga bog‘liq. Innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va yangi bozorlarga chiqish imkonini beradi. Shu bois, innovatsion faoliyat samaradorligini aniqlash va baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2025-yilda 1,1 kvadrillion so‘mlik

sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 6,8 % ga oshgan. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi respublika bo‘yicha 29,1 mln so‘mni tashkil etdi. 2026-yil 1-yanvar holatiga respublikamizda 59,8 mingta sanoat korxonalarini faoliyat yuritmoqda. [1] Qayd etilishicha, ishlab chiqarish sanoatining yuqori ulushi sanoat tarkibida qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish yo‘nalishlari asosiy o‘rin tutayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tog‘-kon ishlari hamda elektr-gaz ta‘minoti sohalari sanoatning muhim bo‘g‘inlari sifatida saqlanib, suv ta‘minoti va chiqindilarni boshqarish yo‘nalishi esa nisbatan kichik ulushga ega.

Innovatsion faoliyat — bu yangi texnologiyalar, mahsulotlar yoki xizmatlarni yaratish va joriy etish bilan bog‘liq jarayonlar majmuasidir. Sanoat korxonalarida bu jarayon ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va avtomatlashtirish orqali amalga oshiriladi. Innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda quyidagi asosiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Iqtisodiy samaradorlik:
 - Innovatsiyadan olingan qo‘shimcha foyda;
 - Investitsiyalarning qaytarilish darajasi (ROI);
 - Tannarxning pasayishi.
2. Ishlab chiqarish samaradorligi:
 - Mehnat unumdorligining oshishi;
 - Ishlab chiqarish hajmining o‘shishi;
 - Energiya va resurs tejamkorligi.
3. Ilmiy-texnik samaradorlik:
 - Yangi texnologiyalar soni;
 - Patentlar va litsenziyalar;
 - Ilmiy tadqiqot natijalari.
4. Ijtimoiy samaradorlik:
 - Yangi ish o‘rinlari yaratilishi;
 - Xodimlar malakasining oshishi;
 - Ish sharoitlarining yaxshilanishi.

Innovatsion faoliyatni baholashda quyidagi usullar qo‘llaniladi:

- Solishtirma tahlil (benchmarking);
- Diskontlagan pul oqimlari usuli (NPV, IRR);
- Ko‘p omili tahlil;
- Ekspert baholash usullari.

Solishtirma tahlil (benchmarking) usuli — bu korxona faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarini yetakchi korxonalar yoki sohadagi eng yaxshi amaliyotlar bilan taqqoslash orqali samaradorlikni baholash usulidir. Ushbu usul sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat natijadorligini aniqlash va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu usulning asosiy maqsadi ilg‘or tajribalarni aniqlash, korxonadagi kamchiliklarni topish, innovatsion jarayonlarni takomillashtirish, raqobatbardoshlikni oshirishdir.

Solishtirma tahlil quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Ichki benchmarking- Bir korxona ichidagi bo‘limlar yoki filiallar faoliyatini taqqoslash;
2. Raqobat benchmarking- To‘g‘ridan-to‘g‘ri raqobatchi korxonalar bilan taqqoslash;
3. Funktsional benchmarking- Boshqa sohadagi, ammo o‘xshash funksiyalarni bajaradigan korxonalar bilan solishtirish;
4. Strategik benchmarking- Uzoq muddatli strategiyalar va innovatsion rivojlanish yo‘nalishlarini taqqoslash;
5. Takomillashtirish choralarini ishlab chiqish ilg‘or tajribalarni joriy etish bo‘yicha qarorlar qabul qilinadi.

Solishtirma tahlil (benchmarking) usuli afzalliklari ilg‘or innovatsion yechimlarni o‘zlashtirish imkonini beradi, samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi, strategik qarorlar qabul qilishni osonlashtiradi, raqobat muhitini chuqurroq tushunish imkonini yaratadi. Kamchiliklari esa aniq va ishonchli ma‘lumot topish qiyin, raqobatchilar haqida ma‘lumotlar cheklangan bo‘lishi mumkin, ko‘p

vaqt va resurs talab qiladi. Solishtirma tahlil (benchmarking) usuli sanoat korxonalari innovatsion faoliyati samaradorligini baholashda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. U orqali korxonalar o‘z faoliyatini ilg‘or tajribalar bilan taqqoslab, innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirishi mumkin.

Sanoat korxonalarida innovatsion loyihalar samaradorligini baholashda eng keng qo‘llaniladigan usullardan biri — diskontlagan pul oqimlari (Discounted Cash Flow, DCF) usulidir. Ushbu usul vaqt omilini hisobga olgan holda kelgusidagi pul tushumlarining joriy qiymatini aniqlashga xizmat qiladi. [2]

NPV va IRR usullari sanoat korxonalarida yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish, startap va innovatsion mahsulotlarni baholashda qo‘llaniladi. Diskontlangan pul oqimlari usulining afzalliklari vaqt omilini hisobga oladi, investitsiya samaradorligini aniq ko‘rsatadi, qaror qabul qilishni osonlashtiradi. Kamchiliklari esa diskont stavkasi tanlash murakkab, uzoq muddatli prognozlar noaniq bo‘lishi mumkin, hisob-kitoblar nisbatan murakkabligidir. Diskontlagan pul oqimlari usuli (NPV va IRR) sanoat korxonalari innovatsion faoliyati samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu usullar investitsiya loyihalarining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini aniqlashda ishonchli vosita hisoblanadi.

Ko‘p omili tahlil — bu sanoat korxonalari innovatsion faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi bir nechta omillarni bir vaqtning o‘zida o‘rganish va baholashga qaratilgan tahlil usulidir. Ushbu usul orqali turli iqtisodiy, texnologik va tashkiliy omillarning umumiy natijaga ta’siri aniqlanadi. Ko‘p omili tahlilning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, korxona samaradorligiga faqat bitta emas, balki bir nechta ya’ni, investitsiyalar hajmi, texnologiya darajasi, mehnat unumdorligi, xodimlar malakasi, innovatsiyalarga ajratilgan mablag‘ kabi o‘zaro bog‘liq omillar ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ushbu omillarni alohida emas, balki kompleks holda tahlil qilish talab etiladi.

Ko‘p omili tahlil quyidagi statistik va iqtisodiy usullar orqali amalga oshiriladi:

1. Regressiya tahlili. Natijaviy ko‘rsatkich (masalan, foyda) bilan ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaydi;

2. Korrelyatsiya tahlili. Omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik darajasini o‘lchaydi;

3. Faktor tahlili. Ko‘p sonli omillarni qisqartirib, asosiy ta’sir etuvchi faktorlarni aniqlaydi;

4. Indeksli tahlil. Vaqt davomida ko‘rsatkichlar o‘zgarishini baholaydi.

Ko‘p omili tahlilni amalga oshirish quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Tadqiqot maqsadini belgilash;
2. Omillarni tanlash va guruhlash;
3. Ma’lumotlarni yig‘ish va tayyorlash;
4. Matematik modelni tuzish;
5. Tahlil natijalarini baholash;
6. Xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Sanoat korxonalarida ko‘p omili tahlil innovatsiya samaradorligiga qaysi omillar kuchli ta’sir qilayotganini aniqlash, resurslarni to‘g‘ri taqsimlash, strategik qarorlar qabul qilishni asoslash, risklarni kamaytirish imkoniyatlarini beradi. Uning afzalliklari kompleks va aniq tahlil imkonini beradi, omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Kamchiliklari esa ko‘p miqdorda ma’lumot talab qiladi, hisob-kitoblar murakkab, matematik bilimlarni talab etadi. Ko‘p omili tahlil usuli sanoat korxonalari innovatsion faoliyati samaradorligini chuqur va har tomonlama baholash imkonini beradi. Ushbu usul orqali korxonalar o‘z faoliyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlab, innovatsion rivojlanish strategiyasini samarali ravishda shakllantirishlari mumkin.

Ekspert baholash usullari — bu innovatsion faoliyat samaradorligini malakali mutaxassislar (ekspertlar) fikri asosida baholashga qaratilgan usullar majmuasidir. Ushbu usul, ayniqsa, aniq statistik ma’lumotlar yetarli bo‘lmagan holatlarda yoki yangi innovatsion loyihalarni baholashda keng qo‘llaniladi. Ekspert baholashda sohada tajribaga ega mutaxassislar muayyan mezonlar asosida innovatsion loyihalarga baho beradilar. Bu jarayonda ekspertlarning bilim, tajriba va intuitsiyasi muhim ahamiyatga ega.

Ekspert baholash usullarining turlari;

• Delfi usuli. Ekspertlar bir-biridan mustaqil ravishda fikr bildirishadi va bir necha bosqichda fikrlar yaqinlashtiriladi;

• Anketalash usuli. Ekspertlarga maxsus savolnomalar tarqatilib, ularning fikrlari yig‘iladi;

• Intervyu usuli. Ekspertlar bilan bevosita muloqot orqali ma’lumot olinadi;

• Komissiya usuli. Ekspertlar guruhi birgalikda muhokama qilib, umumiy qarorga keladi.

Ekspert baholash jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

• Ekspertlarni tanlash. Yuqori malakali va tajribali mutaxassislar jalb qilinadi;

• Baholash mezonlarini ishlab chiqish. Innovatsion faoliyatni baholash ko‘rsatkichlari belgilanadi;

• Ma’lumotlarni yig‘ish. Ekspert fikrlari turli usullar orqali to‘planadi;

• Natijalarni qayta ishlash. Olingan baholar tahlil qilinadi va umumlashtiriladi;

• Xulosa chiqarish. Yakuniy qaror va tavsiyalar shakllantiriladi.

Ekspert baholash usullarining afzalliklari ma’lumot yetishmagan holatda samarali, yangi va noaniq loyihalarni baholash imkonini beradi, sohaviy mutaxassislar tajribasidan foydalanish imkonini bersa, uning kamchiliklari sub’ektivlik yuqori, ekspert tanlashda xatolik ehtimoli borligi, natijalarni umumlashtirish murakkab bo‘lishi mumkinligidadir. Sanoat korxonalarida ekspert baholash usullari innovatsion g‘oyalarni saralash, investitsiya loyihalarini baholash, risk va noaniqlikni kamaytirish, strategik qarorlar qabul qilishda muhim vosita hisoblanadi. Ekspert baholash usullari sanoat korxonalari innovatsion faoliyati samaradorligini baholashda muhim va zarur instrumentlardan biri bo‘lib, ayniqsa noaniqlik sharoitida samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish iqtisodiy o‘shishning muhim omili hisoblanadi. Samaradorlik ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri baholash va tahlil qilish korxonalarga strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy resurslar yetishmasligi, texnologik infratuzilmaning zaifligi, malakali kadrlar kamligi kabi muammolar kuzatiladi. Ushbu muammolarni hal qilish maqsadida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish zarur.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Drucker, P. F. Innovation and Entrepreneurship. – New York: Harper & Row, 1985.
2. Oslo Manual. Guidelines for Collecting and Interpreting Innovation Data. – Paris: OECD Publishing, 2018.
3. Freeman, C. The Economics of Industrial Innovation. – London: Pinter Publishers, 1997.
4. Tidd, J., Bessant, J. Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change. – Wiley, 2020.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Инновацион ривожланиш стратегияси тўғрисида”ги фармони, 2018.
6. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари. – Тошкент, 2023.
7. Абдуллаев Й. ва бошқалар. Инновацион иқтисодиёт. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2020.
8. Расулов А. Саноат иқтисодиёти. – Тошкент: Фан ва технология, 2019.